ISBN 978-9943-4558-3-2

M.Masharipova, O.Saidov

# KORXONA IQTISODIYOTI CHIZMALARDA

I QISM



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMLI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**M.Masharipova, O.Saidov**

# KORXONA IQTISODIYOTI CHIZMALARDA (I QISM)

(o'quv-uslubiy qo'llanma)

*O'quv-uslubiy qo'llanma Urganch davlat universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2016-yil 30-martdagi 6-sonli yig'ilishi bayonnomasi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

**Urganch – 2016**

**UDK: 330.101.541(075.8)**
**KBK: 65.292**
**M34**
**M.Masharipova, O.Saidov.** Korxona iqtisodiyoti chizmalarda. O'quv-uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir **Sh.Ruzmetov.** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti. Urganch, UrDU noshirlik bo'limi, 2016-yil. 60 bet.

**KBK 65.292ya73**

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada iqtisodiyotning sohalari va bo'limlari, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, tadbirkorlik va korxonalarning o'zaro aloqasi, korxonalarning turlari va shakllari, korxonalarning birlashmalari, bozor munosabatlari va bozor mexanizmida korxonaning tutgan o'rni kabi masalalar yoritiladi.

Qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari, bevosita korxona iqtisodiyoti bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir** — **Sh.Ruzmetov,** iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:** — **S.Salayev,** prof., **B.Ruzmetov,** prof.

**ISBN: 978-9943-4558-3-2**
© **UrDU noshirlik bo'limi, 2016.**
© **M.Masharipova, O.Saidov.** Korxona iqtisodiyoti chizmalarda. O'quv-uslubiy qo'llanma.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, iqtisodiyotni tartibga solishning bosh vazifalaridan biri ishlab chiqarishni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish va uni barqarorlashtirish hisoblanadi. Ushbu masalani muvaffaqiyatli hal etishda tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri hisoblangan korxona (firma) muhim o'rin tutadi.

Korxonada jamiyat uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqariladi va turli xildagi zaruriy xizmatlar bajariladi. Odatda, korxonada eng yetuk malakali kadrlar to'plangan bo'ladi.

Resurslar sarfining samaradorligi, unumdor texnika va texnologiyalar qo'llash masalalari shu joyda hal etiladi. Bundan tashqari, korxonalarda biznes reja tuzish, marketingni qo'llash, ishlab chiqarishga rahbarlik-menejment ishlari ham amalga oshiriladi. Shu bilan birga, korxonalar O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'grisida"gi, "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi qonunlari va bozor talablariga asosan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi.

Mazkur o'quv uslubiy qo'llanmaning maqsadi – talabalarga barcha iqtisodiy masalalar yechimini topish, kelajakda iqtisodiy bilimlar olish uchun o'ziga xos poydevor bo'lib xizmat qiluvchi zamonaviy korxonalar iqtisodiyoti asoslarini o'rganishga ko'maklashish.

Iqtisodiyot – jamiyat hayotining asosi. Uning holati, yutuqlari va istiqbollari turli fanlarning o'rganish predmeti hisoblanadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, iqtisodiyotning, ayniqsa, umummilliy darajada muvaffaqiyatli rivojlanishi korxonalarning samarali va foyda bilan ishlashiga bog'liqdir. Bunga sabab shuki, korxonalar jamiyatga zarur mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bir qatorda, mehnatga layoqatli aholining asosiy qismini, moliyaviy va moddiy resurslarni, ishlab chiqarish quvvatlarini birlashtiradi va ishga soladi. Shuning uchun ham korxona iqtisodiyoti fani ko'plab oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashning o'quv rejalariga kiritgan.

Mazkur o'quv uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan fan dasturiga asoslangan holda tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi korxonalari faoliyatida yuzaga keluvchi iqtisodiy holatlar bilan bo'gliq.

Bundan tashqari, korxona iqtisodiyotini yuritishning tavsifi to'g'risidagi tushunchalardan tashqari, korxonani rivojlantirish strategiyasini shakllantirish, bozor sharoitlarida uning missiyasini aniqlash, biznes- re-

ja tuzishga, marketing faoliyatini tashkil etishga, bankrotga yo'l qo'ymaslikka o'rgatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, korxona iqtisodiyoti fanining ahamiyati korxona faoliyatini yuritishga bog'liq tashkiliy, iqtisodiy va nazariy xulosalar, amaliy ma'lumotlar bilan isbotlangan holda yoritilishiga harakat qilingan.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma bo'yicha Siz, kitobxonlarning xolisona taklif va tavsiyalaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Manzil: Urganch shahri, "Gurlan" ko'chasi, 2-$^{a}$ uy, UrDU iqtisodiyot fakulteti, iqtisodiyot kafedrasi.

***Mualliflar***



# I BOB. "KORXONA IQTISODIYOTI" KURSINING MAZMUNI VA MOHIYATI

## 1.1. "Korxona iqtisodiyoti"– iqtisodiy fanning tarkibiy qismi

1.1.1-chizma

"Iqtisodiyot" atamasi

↓

Dastlab, Ksenofont, Aristotel, Platon asarlarida kuzatilgan. O'rta Osiyoda esa Qur'oni karimda, hadislarda, "Qobusnoma"da, Ibn Holdun asarlarida, bobolarimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek asarlarida keng qo'llanilgan.

↓

"Iqtisodiyot" atamasi birinchi bor Aristotel tomonidan fanga kiritilgan hamda odamlarning tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashdagi xo'jalik faoliyatini anglatgan.

↓

Iqtisodiyotning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga o'z vaqtida A.Smit yuqori baho berib, u insonni "homo economicus" – "iqtisodiy odam", "bozor odami" deb atagan.

↓

P.Samuelsonning ta'kidlashicha: "Iqtisodiyot fanini muntazam ravishda o'rganib bormaydigan odam musiqiy asarga o'zining bahosini bermoqchi bo'layotgan garang kishiga o'xshaydi".

1.1.2-chizma

**Iqtisodiyot – fan va ishlab chiqarish faoliyatining sohasi sifatida**

**Iqtisodiyot** – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklardan, xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo‘shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o‘ta murakkab ijtimoiy tizimni anglatadi.

**“Iqtisodiyot doimo moddiydir”** iborasi insonning hayotiy ehtiyojlari, ya’ni uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, avtomobil va hokazolarga bo‘lgan ehtiyojlaridan tashqari, iqtisodiyotning axrli va xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan mahsulot (tovar) tayyorlash, shuningdek, moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini ham aks ettiradi.

**“Iqtisodiyot”** fani umumiy fanlarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

**“Iqtisodiyot” fan** sifatida tabiatda hamda inson, jamoa va jamiyat hayotida vujudga keluvchi turli xil iqtisodiy jarayon va hodisalarni prognozlashtirish, tahlil qilish va baholash bo‘yicha bilimlar majmuasini ifoda etadi. U bir inson uchun ham, butun jamiyat uchun ham zarur bo‘lgan moddiy va nomoddiy obyektlarning katta qismini hamda moddiy va ma’naviy ne’matlarni tayyorlash, taqsimlash usullari va jarayonlarini o‘z ichiga oladi.



1.1.3-chizma

**Iqtisodiyot fanining tarkibiy tuzilmasi**

| **Turli tarmoqlar** | **Funksional tuzilmalar** | **Turli fan tarmoqlari** |
| --- | --- | --- |
| sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport | “Mehnat sotsiologiyasi va iqtisodiyoti”, “Iqtisodiy statistika”, “Moliya va kredit”, “Bahoni shakllantirish” | “Iqtisodiy geografiya”, “Demografiya”, “Iqtisodiyot tarixi”, “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” |

1.1.4-chizma

Aynan moddiy ishlab chiqarish sohasi (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport va hokazo) aholining asosiy qismini ish bilan ta’minlaydi. Mehnat bilan bandlik ko‘rsatkichi iqtisodiyot holatining o‘ziga xos “barometri” vazifasini bajaradi: aholining mehnat bilan bandligi qanchalik yuqori bo‘lsa, ishsizlik sur’ati shunchalik past bo‘ladi va, aksincha.

⇒

Iqtisodiyotning turli darajadagi – korxona, tarmoq va butun davlat miqyosidagi holati moddiy ishlab chiqarishning yutuqlari, jumladan, moddiy ishlab chiqarishning keng ma’noda iste’molga yoki bugungi til bilan aytganda, bozor talabiga mos kelishi bilan tavsiflanadi va oldindan belgilab beriladi.

1.1.5-chizma

**Iqtisodiyot va ishlab chiqarish**

*kompyuterlashtirish va axborotlashtirish*

Bunda boshqaruv tizimining eng muhim bo‘g‘inlaridan tashqari, ishchi kuchining sifatini oshirish vositasi hamda ishlab chiqarish jarayonini muvaffaqiyatli tashkillashtirish uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi.

*ishlab chiqarish infratuzilmasi*

transport, aloqa, energetika va axborot xizmati

*ijtimoiy infratuzilma*

maorif, sog‘liqni saqlash, umumiy ovqatlanish, uy-joy-kommunal xizmati va boshqalar

Bu sohalarda ham aholining katta qismi mehnat bilan band bo‘lib, ularning mehnati moddiy ishlab chiqarish xodimlari mehnatidan kam foyda keltirmaydi.



1.1.6-chizma

**“Korxona iqtisodiyoti” – iqtisodiyot fanining bilimlar sohasi**

Iqtisodiyotning rivojlanishiga kerakli bilim va ko‘nikmalarni, mablag‘ va kuchlarni kiritmasdan turib korxona ham, jamiyat ham rivojlangan iqtisodiyotni hamda moddiy ne’matlarning to‘kinligi va turmush tarzining yuqoriligini talab qila olmaydi.

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va korxonalarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlariga keng imkoniyatlar ochib berish bilan birga kadrlarga, ularning bilimlari, ko‘nikmalari va malakalariga katta talablar qo‘ymoqda.

Bir tomondan, fan-texnika taraqqiyoti, ikkinchi tomondan esa bozor munosabatlari va raqobatchilikning rivojlanib borish sharoitlarida mehnat bozorida faqatgina zamonaviy korxonalar iqtisodiyotini yaxshi biluvchi, uning balansini to‘g‘ri tushunuvchi, biznes-reja ishlab chiqarishga qodir, investitsion va boshqa xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan qarorlarni qabul qilishni to‘g‘ri amalga oshiruvchi mutaxassislar muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

1.1.7-chizma

**"Korxona iqtisodiyoti" kursi...**

Xuddi boshqa fanlar kabi, birinchi o'rinda o'rganish funksiyasini bajaradi. Uning mahsulot ishlab chiqarish moddiy-texnika resurslarini sarf qilishni talab qilishi bilan xodimlar mehnati, ularga haq to'lash va rag'batlantirishning boshqa shakllari bilan daromad hajmi esa xarajatlar miqdori va bahoni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qo'shma korxonalarda sodir etiluvchi hodisa va jarayonlarni o'rganishi va izohlashi mo'ljallangan.

Aholi va milliy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-xo'jalik mexanizmlarini o'rganuvchi va ochib beruvchi fandir. U tabiat va jamiyatning muayyan ishlab chiqarish sharoitlarida rivojlanishining obyektiv qonunlari namoyon bo'lishi va amal qilishiga, shuningdek, korxonalar faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi davlat miqyosida qabul qilinuvchi qoida, normativ va qonun hujjatlariga tayanadi.

Qandaydir omillarni oddiy tarzda qayd qilish haqidagina emas, balki korxonalar iqtisodiy hayotining mohiyatini anglash, ularning iqtisodiy ahvolini yaxshilash yo'llarini tanlash, baholash va tahlil qilish, eng muhim iqtisodiy jarayonlarni prognozlashtirish va modellashtirish haqida ham boradi.



## 1.2. "Korxona iqtisodiyoti" fanning obyekti, predmeti, maqsadi va boshqa fanlar bilan aloqasi

1.2.1-chizma

**"Korxona iqtisodiyoti" fanining...**

... tadqiqotlari obyekti turli mulk shaklidagi mikrofirma, kichik va yirik korxonalar hisoblanadi. Hozirgi kunda iqtisodiy faoliyatning, moddiy ishlab chiqarishning joriy va istiqbolli rivojlanish strategiyasi hamda mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashning asosiy og'irligi aynan korxonalar "yelkasi"ga yuklatilmoqda.

... korxona iqtisodiyotning bir bo'g'ini bo'lib, unda eng malakali kadrlar mujassamlangan hamda samarali boshqaruv-menejment qo'llanib, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish masalalari hal qilinadi.

...ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifat ko'rsatkichlarini saqlagan holda, xarajatlarni minimallashtirish va daromad (foyda)ni maksimallashtirish deyarli har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

1.2.2-chizma

**“Korxona iqtisodiyoti” predmeti**

Fanning predmeti bozor munosabatlari sharoitlarida korxonalar faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini, korxonalar faoliyatida iqtisodiy qonuniyatlarning namoyon bo‘lishini, shuningdek, ularning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati samaradorligi reurslaridan oqilona foydalanish, ratsional boshqaruv, investitsion va tadbirkorlik faolligi asosida oshirish yo‘llarini aniqlash bilan ifodalanadi.

Fanning predmetini tashkil qiluvchi eng asosiy muammo va masalalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:
– bozor munosabatlarida korxonaning roli, o‘rni va xatti-harakatlari hamda davlat idoralari bilan o‘zaro aloqalari;
– korxonaning tashkiliy tuzilishi va boshqaruv mexanizmi;
– ishlab chiqarishni rejalashtirish va prognozlashtirish;
– korxonaning innovatsion va investitsion faoliyati;
– korxonaning resurs salohiyati va resurslardan foydalanish;
– ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilish;
– korxonaning tijorat sirlari va iqtisodiy xavfsizligi.



1.2.3-chizma

**Fanning maqsadi**

Fanning maqsadi ta’lim olayotganlarga amaliy iqtisodiy bilimlarni, shuningdek, mustaqil fikrlash hamda olingan axborotlar va mustaqil o‘rganish yordamida korxona iqtisodiyoti muammo (masala)lari bo‘yicha qaror qabul qilish ko‘nikmalarini singdirishda namoyon bo‘ladi. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, gap bo‘lajak mutaxassislarni ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish vazifalarini malakali tarzda hal qilish, korxonaning xarajat va daromadlari qanday yuzaga kelishi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud bo‘lgan yo‘llarni topish haqida bormoqda.

1.2.4-chizma

**“Korxona iqtisodiyoti” fan sifatida boshqa iqtisodiy fanlar bilan…**

Jumladan, “Iqtisodiy nazariyasi”, “Mikro va makroiqtisodiyot”, “Sanoat iqtisodiyoti”, “Lizing”, “Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil qilish”, “Xomashyo yetkazib berish va mahsulotni sotishni o‘rganish” bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda korxonalarning tashkiliy tuzilmasidan tashqari, joriy va istiqboldagi ishlab chiqarishni rejalashtirish, mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi o‘rganiladi hamda mehnatni tashkil qilish va haq to‘lashning asoslari ishlab chiqiladi.

1.2.5-chizma

**"Korxona iqtisodiyoti", "Iqtisodiyot" va "Mikroiqtisodiyot" fanlari...**

Korxona iqtisodiyoti "Iqtisodiyot" fanining tarkibiy qismi bo'lsa-da, mustaqil bilimlar sohasi hisoblanadi. U boshqa iqtisodiy fanlardan, ayniqsa, "Mikroiqtisodiyot"dan mazmuni va ma'lumotlarni keltirish mantig'iga ko'ra farqlanadi. Ya'ni korxona iqtisodiyoti bir korxonani tashkil etishdan to uni tugatishgacha bo'lgan jarayonlarni o'rgatadigan fan hisoblanadi.

"Iqtisodiyot" fani izlanish va uslubiy vazifalarni bajaradi hamda jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlarida qabul qilinuvchi amaliy qarorlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

"Mikro" so'zi iqtisodiy hodisa va jarayonlarni iqtisodiyotning birlamchi bo'g'inlari – korxona va firmalar miqyosida ko'rib chiqishni ko'zda tutadi.



## 1.3. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlashda korxonaning o'rni va roli

1.3.1-chizma

Korxona – bu yuridik shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.

O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

O'zbekistonda ko'plab mikrofirmalar, kichik va yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini – og'ir sanoatdan yengil sanoatgacha, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan ilmiy ishlab chiqarishgacha qamrab olgan.

Ular o'z faoliyatida ishlab chiqarishning barcha omillaridan – yer, tabiiy va mehnat resurslari, texnika va texnologiyalar, investitsiyalar, hozirgi zamon fani tomonidan ishlab chiqarishning asosi yoki mamlakatning milliy boyligi deb ataluvchi zamonaviy axborot tizimidan foydalanadi.

1.3.2-chizma

Korxona – avvalo, ishlab chiqarish jamoasi, odamlarning turli tarzdagi faoliyati bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi yuzaga keladi hamda ma’lum bir turmush tarzi, ma’naviyat va axloq me’yorlari shakllanadi

1.3.3-chizma






1.3.4-chizma

**Korxona qaysi tarmoqqa mansubligi va mulk shaklidan qat’iy nazar, qanchalik yaxshi va samarali ishlasa, iqtisodiyot ko‘rsatkichlari hamda aholining turmush tarzi shunchalik yuqori bo‘ladi**

Bunday sharoitlarda xo‘jalik amaliyoti va fan oldiga 3 ta muammoni qo‘yadi

| | | |
|---|---|---|
| birinchi o‘rinda har bir korxona, to‘g‘rirog‘i, ishlab chiqarishda qatnashuvchi butun jamoaning bozor munosabatlariga asoslangan hozirgi iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari va qonunlarini, avvalo, uning asosiy ko‘rsatkichlari – talab va taklif tushunchalarini bilishi va to‘g‘ri tushunishi | ikkinchidan, milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishida o‘z hissasini qo‘shishi | uchinchidan esa ishlab chiqarishning har bir bo‘g‘inida yuqori samara va sifat ko‘rsatkichlariga erishish masalasi qo‘yiladi |

## 1.4. Korxonaning belgilari, funksiyalari va vazifalari

1.4.1-chizma

**Zamonaviy korxona–mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek, davlatning o'zigagina tegishli bo'lmaydi. Shu sababli korxonalar:**

| | | | |
|---|---|---|---|
| *mulkchilik shakliga ko'ra, davlat va nodavlat* | *tarmoq belgilariga ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz, sanoat, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo, umumovqatlanish va hokazolar* | *ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga ko'ra, yirik, mikrofirma, kichik firma* | *faoliyat yuritish muddatiga ko'ra, uzluksiz, mavsumiy, uzlukli, korxonalar* |



1.4.2-chizma

**Biroq yuqoridagi belgilaridan qat'iy nazar**

↓

Har bir korxona nizom asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organning nomi, nizom jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxona rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatlari, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokazolar ko'rsatilgan bo'ladi

↓

Nizom jamg'armasi qonunga asosan, korxonani tashkil qilish jarayonida muassislar – davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan shakllantiriladi. Korxona rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayib borishi, daromad hajmi va boshqa moliyaviy tushumlarning ortishi natijasida nizom jamg'armasi ko'paytirilishi mumkin. Nizom jamg'armasi korxonaning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy jihatdan baquvvatligini aks ettiradi

↓

Agar nizomda korxonaning tashkiliy-huquqiy funksiyalari belgilangan bo'lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fondlar, pul mablag'lari va boshqa aktivlar kiruvchi nizom jamg'armasiga tayanadi

↓

Nizom jamg'armasi qonunga asosan, korxonani tashkil qilish jarayonida ta'sischilar – davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan shakllantiriladi. Korxona rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayib borishi, daromad hajmi va boshqa moliyaviy tushumlarning ortishi natijasida nizom jamg'armasi ko'paytirilishi mumkin. Umuman olganda, nizom jamg'armasi korxonaning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy jihatdan baquvvatligini aks ettiradi

1.4.2-chizma

**Korxonani turli belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin**

- **Ishlab chiqarish va texnika munosabatlarida korxona** – bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi
- **Ijtimoiy munosabatlarda korxona** – bu turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar
- **tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxona**– huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi
- **moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxona** – bu tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi



1.4.4-chizma

**Korxona o'ziga xos bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega:**

- *birinchidan,* korxona o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchliligini ta'minlaydi;
- *ikkinchidan,* korxona kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;
- *uchinchidan,* korxona xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan, xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xomashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;
- *to'rtinchidan,* korxona qonunchilikka asosan sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;
- *beshinchidan,* korxona mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;
- *oltinchidan,* korxona o'z firma nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

1.4.5-chizma

Firma nomida ko'rsatilishi lozim bo'lmagan belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:
– davlatning rasmiy nomi, xalqaro, hukumatlararo yoki nodavlat-notijorat tashkilotining qisqartirilgan yoki to'liq nomi;
– tarixiy yoki O'zbekiston Respublikasida mashhur bo'lgan shaxsning to'liq yoki qisqartirilgan ismi, belgilangan tartibda beriladigan ruxsatsiz;
– firma nomining egasi, uning faoliyat turi yoki u kelib chiqqan mamlakat xususidagi soxta yoki iste'molchini chalg'itishi mumkin bo'lgan belgilar;
– jamiyat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq prinsiplariga zid bo'lgan belgilar;
– ilgari O'zbekiston Respublikasida boshqa shaxs nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan yoki ro'yxatdan o'tkazish so'rab talabnoma berilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilmay muhofaza qilinadigan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);
–belgilangan tartibda hammaga ma'lum deb e'tirof etilgan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);
– belgilangan tartibda qonun hujjatlari bilan muhofaza qilinadigan tovarlar kelib chiqqan joylarning nomlari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga o'xshash bo'lgan belgilar

Firma nomiga bo'lgan mutlaq huquqni undan noqonuniy foydalanishdan himoya qilish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:
– yuridik shaxsning ishchanlik obro'sini himoya qilish maqsadida sud qarori to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish;
– noqonuniy foydalanilgan firma nomini kontrafakt tovarlar, yorliqlar, idishlar va o'rovlardan huquqbuzar hisobidan olib tashlash;
– noqonuniy foydalanilgan firma nomini kontrafakt tovarlar, yorliqlar, idishlar va o'rovlardan olib tashlash mumkin bo'lmagan taqdirda, ularni huquqbuzar hisobidan yo'q qilib tashlash;
– kontrafakt tovarlar, yorliqlar, idishlar va o'rovlarni firma nomiga bo'lgan huquqqa egalik qiluvchi yuridik shaxsga berish



## TAYANCH ATAMALAR

Korxona turlari

**Kontsern** – bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, ya'ni korxonalarning faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi asosida tarkib topadigan yirik ko'p tarmoqli korporatsiya.

**Konsortsium** – bu aniq iqtisodiy loyixalarni amalga oshirishni maqsad qilgan korxonalarning umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladigan muvaqqat birlashmasidir. Konsortsium buyurtmachilar oldidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanadi.

**Xo'jalik assotsiatsiyasi** jismoniy yoki xuquqiy shaxslarning o`zaro xamkorlik yuritish maqsadida ko'ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi subyektlar o'z mustaqilligini saqlab qoladilar.

**Korxona turlari**

- **Sindikat** – tijorat faoliyatini (ta'minot, buyurtmalarni taqsimlash, xom ashyo sotib olish, maxsulot sotish, bahoni shakllantirish) hamkorlikda tashkil qilishga asolangan birlashmadir. Sindikat tarkibiga kiruvchi korxonalar huquqiy hamda xo'jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladilar.
- **Trestlar** yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo'qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.
- **Korporatsiya** yirik aktsioner jamiyatlar birlashmasi hisoblanib, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilarni birlashtiradi. Natijada ishlab chiqarish monopollashadi. **Korporatsiya** atamasi lotincha **"korporatio"** so'zi-dan olingan bo'lib, birlashma, hamjamiyat ma'nosini beradi.



**Korxona turlari**

- **Sho'ba xo'jalik jamiyati.** Agar bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeyiga ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lsa, ushbu ikkinchi xo'jalik jamiyati sho'ba xo'jalik jamiyati hisoblanadi.
- **Qaram xo'jalik jamiyati.** Xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aktsiyalarning yigirma foizidan ko'progiga ega bo`lsa, bunday xo'jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi. Qaram xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.
- **Unitar korxona** O'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxona hisoblanadi.

  Unitar korxonaning mol-mulki bo'linmasdir va u qo'shilgan xissalar (ulushlar, paylar) bo'yicha, shu jumladan korxona xodimlari o'rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.

# II BOB. KORXONANI TASHKIL QILISH VA UNING FAOLIYATINI TO'XTATISH

## 2.1. Korxona faoliyatini tashkil qilish va ta'sis hujjatlarini tayyorlash

2.1.1-chizma






2.1.2-chizma



2.1.3-chizma

Tashkil qilingan korxonaning harakat strategiyasi o‘z ichiga quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

– ish faoliyati maqsadi;
– harakat sohalari;
– firmaning umumiy tasnifi va texnik siyosat;
– iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari;
– xomashyoni uzluksiz yetkazib berishni ta’minlash;
– savdo siyosati;
– marketing siyosati va moliyaviy siyosat.

Hamkorlarni qidirish va tiklash, firmani tashkil qilish vaqtida korxona egasi yoki uning vakolatini olgan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Yangi xo‘jalik yuritish subyektini tashkil qilishning umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

– bir qancha hamkorlar bilan munozaralar o‘tkazish va tender tashkil qilish;
– hamkorlarning moliyaviy ahvolini o‘rganish;
– kelishilgan bayonnoma tayyorlash.

Hamkorlarni tanlashda ochiq yoki yopiq savdo tashkilotchisi tanlov to‘g‘risida ma’lumot beradi. Tanlovda tender ma’lumot va chet el firmalari qatnashishi mumkin. Tanlov keng omma oldida yoki cheklangan, faqat ayrim firmalarni jalb qilgan holda o‘tkazilishi mumkin. Mulk egasi tomonidan taklif qilinadi. Offerentlarga anketa – so‘rovnomani o‘z ichiga olgan tender hujjatlari jo‘natiladi.



2.1.4-chizma

**Korxona faoliyatini tashkil qilishning keyingi bosqichi ta’sis hujjatlarini tayyorlash. Ustavga texnik-iqtisodiy asosnoma ilova qilinadi**

Shartnoma – hamkorlarning huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan huquqiy hujjatdir. Nizom – mulkdorlar tomonidan belgilangan korxonaning iqtisodiy ahvolini belgilovchi iqtisodiy hujjat

Ta’sis hujjatlarini tayyorlash korxonani tashkil etish va keyingi faoliyat yuritish jarayonidagi muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ta’sis hujjatlari faoliyat yurituvchi korxonalarning huquq va majburiyatlari hamda sharoitlarini ifodalaydi. Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil ta’sis hujjatlari belgilab berilgan:

**Korxona nizomi**

**Ta’sis shartnomasi**

Shuni qayd qilib o‘tish kerakki, korxona (huquqiy shaxs)ning ta’sis shartnomasi kelishuv asosida tuziladi, nizom esa ta’sischi (ta’sischilar) tomonidan tasdiqlanadi. Bitta ta’sischi tomonidan tuzilgan huquqiy shaxs shu ta’sischi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida faoliyat yuritadi

2.1.5-chizma

Korxona nizomi asosiy ta'sis hujjati bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, nomi va manzilgohi, nizom jamg'armasining miqdori, daromadlarining tarkibi va taqsimlanish tartibi hamda korxona fondlarini tashkil qilish tartibi, korxonani tugatish va qayta tashkil qilish tartibi ko'rsatilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, korxona nizomi, uning huquqiy maqomini, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi

↓

Nizomda, shuningdek, korxona faoliyat ko'rsatuvchi soha va tarmoq, atrof-muhit va odamlar sog'ligini muhofaza qilish kafolati, boshqaruv shakli, hisobga olish va hisobot tizimi ham aks ettirilishi lozim. Korxona to'g'ri va to'liq tayyorlangan nizom asosida mahalliy hokimiyat idoralarida ro'yxatga olinadi, keyin esa o'z muhriga ega bo'lish va bankda hisob raqami ochish huquqini qo'lga kiritadi

↓

Ta'sis shartnomasi korxonaning tashkil qilinishi va yakka tarzda yoki hamkorlikdagi faoliyatning boshlanishini tavsiflovchi hujjatdir. U, shuningdek, tashkil etilayotgan korxonaning nizomini to'ldiruvchi hujjat qilib hisoblanadi. Ta'sis shartnomasida korxonani tashkil qilish tartibi, daromad va harajatlarni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash shartlari, ishtirokchilarni (ta'sischilar) korxona tarkibidan chiqish faoliyat tartibi belgilab qo'yiladi



## 2.2. Korxonalarning davlat tomonidan ro'yxatga olinishi

2.2.1-chizma



2.2.2-chizma

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI**
**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI TASHKIL ETISH VA DAVLAT RO‘YXATIDAN O‘TKAZISH TARTIBINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**
*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 22–23-son, 224-modda)*

– yangi tashkil qilinayotgan mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar ustav fondi (ustav kapitali)ning eng kam hajmi davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun hujjatlar taqdim etilgan sanada qonunchilikda belgilangan eng kam ish haqi miqdorining qirq baravaridan kam bo‘lmasligi kerak;

– tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olish bo‘yicha tegishli inspeksiyalarda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun to‘lanadigan davlat boji stavkasi eng kam ish haqi miqdorining bir baravariga tengdir;

– tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda notarial tarzda tasdiqlangan ta’sis hujjatlarini taqdim etish haqidagi talab bekor qilinadi, xorijiy investitsiyali korxonalar va chet el sarmoyasi ishtirokidagi boshqa korxonalar bundan mustasno;

– O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi 2011-yilning 1-iyunidan muassislar yoki ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning elektron buyurtmasiga ko‘ra, internet tarmog‘i orqali firma nomlarining markazlashgan ma’lumotlar bazasida xo‘jalik yurituvchi subyektning firma nomini zaxira qilib qo‘yish amaliyotini joriy etsin.



2.2.3-chizma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA “YAGONA DARCHA” TAMOYILI BO‘YICHA DAVLAT XIZMATLARI KO‘RSATISH TARTIBINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDAGI QARORIGA MUVOFIQ
*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 40-son, 516-modda)*

“Yagona darcha” markazlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

– “Yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatildi;

– tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash tartib-taomillaridan o‘tishda shaffoflikni ta‘minlandi;

– tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda byurokratik g‘ov-to‘siqlarga yo‘l qo‘ymasdan davlat xizmatlari ko‘rsatayotgan davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatildi;

– arizachilarga informatsion yordam ko‘rsatish, shuningdek, davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibi va muddatlari to‘g‘risida bepul konsultatsiyalar berish yo‘lga qo‘yildi.

2.2.4-chizma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA "YAGONA DARCHA" TAMOYILI BO'YICHA DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISH TARTIBINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDAGI QARORIGA MUVOFIQ TAMOYILI

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 40-son, 516-modda)*

Tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari negizida tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish markazi "yagona darcha" markazlarini belgilangan tartibda kamida 1 Mb/s tezligida bo'lgan Internet tarmog'ining milliy segment ma'lumotlarini uzatish tarmog'iga, shuningdek, bepul foydalanish asosida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning idoralararo elektron hamkorlik tizimiga, jumladan O'zbekiston Respublikasi interaktiv davlat xizmatlari yagona portali orqali o'rnatish yo'lga qo'yildi.

Tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishda, qonunchilikda belgilangan tartibni qiyinlashtirishning har xil usullaridan, jumladan, ro'yxatdan o'tish va litsenziya olish tartib-taomillarini, shuningdek, xususiy tadbirkorlik faoliyatiga qarshilik qiladigan boshqa byurokratik to'siqlardan foydalanishga qat'iyan yo'l qo'yilmaydi.



## 2.3. Korxonani tugatish va qayta tashkil qilish

2.3.1-chizma



2.3.2-chizma

**Korxonani tugatish**

Korxonani tugatish huquqiy xatti-harakat bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatining to'xtatilishini anglatadi. Korxona tugatilganda u davlat ro'yxatidan chiqariladi, uning bankdagi hisob raqami yopiladi hamda muhr, shtamp va boshqa rekvizitlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Korxonani tugatishda tugatish komissiyasi tuzilib, unga kreditorlarga korxona tugatilganini xabar qilish, kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini undirish choralarini ko'rish, shuningdek, korxonaning tugatilishi sababli ishsiz qolgan xodimlar ish bilan ta'minlanishiga yordamlashish vazifasi yuklanadi. Korxonani tugatish jarayonida oraliq tugatish balansi tuzilib, unga tugatilayotgan korxonaning mulki, kreditorlarning talablari va ularni ko'rib chiqish natijalari ro'yxati kiritilishi lozim. Ushbu balans korxonaning ta'sischisi (ta'sischilari) yoki korxonani tugatish to'g'risida qaror chiqargan idora tomonidan tasdiqlanadi. Tugatish komissiyasining aybi bilan keltirilgan zarar uchun tugatish komissiyasi javobgar hisoblanadi.



2.3.3-chizma

**Korxonani qayta tashkil qilish – bu...**

- uning birlashib ketishi, qo'shilishi, bo'linishi, ajralib chiqish va shaklini o'zgartirishi degani;
- ta'sischi (ta'sischilar) yoki korxona boshqaruvi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi;
- korxonaning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga xizmat qilishi lozim

2.3.4-chizma

**BANKROTLIK TO'G'RISIDA (yangi tahriri)**
Yangi tahrir O'zR 24.04.2003-y. 474-II son qonuni bilan tasdiqlangan (28.08.1998-yildagi oldingi tahririga qarang)
Mazkur qonunga O'zR 20.12.2005-y. O'RQ-15-son qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

**1-modda. Ushbu qonunning maqsadi**

Ushbu qonunning maqsadi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning bankrotligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat

**5-modda. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish**

Bankrotlik to'g'risidagi ish xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bankrotlik to'g'risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o'ttiz karrasini tashkil etadigan bo'lsa, xo'jalik sudi tomonidan qo'zg'atilishi mumkin, ushbu qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**6-modda. Xo'jalik sudiga murojaat qilish huquqi**

Pul majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan xo'jalik sudiga murojaat etish huquqiga qarzdor, kreditor va prokuror ega.

Majburiy to'ovlar majburiyatini bajarmaganligi natijasida qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan xo'jalik sudiga murojaat etish huquqiga qarzdor, prokuror, davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar ega.



2.3.5-chizma

**BANKROTLIK TO'G'RISIDA (yangi tahriri)**
Yangi tahrir O'zR 24.04.2003-y. 474-II son qonuni bilan tasdiqlangan (28.08.1998-yildagi oldingi tahririga qarang)
Mazkur qonunga O'zR 20.12.2005-y. O'RQ-15-son qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

**3-modda. Asosiy tushunchalar**

**Bankrotlik** (iqtisodiy nochorlik) – xo'jalik sudi tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi

**kelishuv bitimi** – taraflarning sud nizosini o'zaro yon berish asosida tugatish to'g'risidagi bitimi;

**Moratoriy** – qarzdor yuridik shaxs tomonidan pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to'lovlar majburiyati bajarilishini to'xtatib turish

## TAYANCH ATAMALAR

**Yangi korxonani tashkil qilish quyidagi tashkiliy ta'moyillar asosida amalga oshiriladi**

- Korxona tashkil qilish fikrining paydo bo'lishi;
- Korxona muassislarini tanlash;
- Taklif qilinayotgan mahsulotga bozordagi talabni o'rganish;
- Korxona nizom jamg'armasini tuzish uchun moliya manbalarini aniqlash;
- Korxonaning ta'sis hujjatlari va biznes rejasini tayyorlash;
- Korxonaning ta'sis hujjatlari va biznes rejasini tayyorlash;
- Davlat ro'yxatidan o'tish;
- muhr, shtamp va boshqa rekvezitlarni tayyorlash;



Korxona faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil **ta'sis hujjatlari** belgilab berilgan:

- **korxona nizomi(ustavi);**
- **ta'sis shartnomasi.**

**Xusuiy korxonaning ustavida quyidagilar ko'rsatilishi kerak.**

- korxonaning firma nomi;
- uning joylashgan yeri va pochta manzili to'g'risidagi ma'lumotlar;
- asosiy faoliyat turlari to'g'risidagi ma'lumot;
- mulkdorning familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash joyi;
- nizom jamg'armasining miqdori.

**Xo‘jalik shirkatining ta‘sis shartnomasida quyidagi ma‘lumotlar bo‘ladi.**

- ta‘sis etilayotgan xo‘jalik shirkatining turi, uning faoliyat sohasi, maqsadlari va muddatlari;
- muassislarning takibi;
- ta‘sis etilayotgan xo‘jalik shirkatining firma nomi va pochta manzili;
- ustav fondining miqdori va uni hosil qilish tartibi;
- qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa shartlar.



**Asiyadorlik jamiyati ustavida quyidagi ma‘lumotlar bo‘lishi lozim.**

- firmaning to‘liq va qisqartirilgan nomi hamda joylashgan yeri.
- faoliyat sohasi, maqsad va muddatlari.
- ustav fondining miqdori.
- ustav fondini ko'paytirish yoki kamaytirsh tartibi.
- chiqarilayotgan aktsiyalar turlari, ularning nominal qiymati, har xil turdagi aktsiyalarning nisbati.
- daromad(foyda)ni, dividentlarni taqsimlash va zararni qoplash tartibi.

## III BOB. KORXONANI BOSHQARISH

### 3.1. Boshqaruv korxona faoliyatidagi obyektiv zarurat sifatida

3.1.1-chizma

**Boshqaruv –**

ijtimoiy mehnat jarayoniga ishlab chiqarish rivojlanishining obyektiv qonunlari asosida yo‘naltirilgan tarzda ta’sir o‘tkazish tizimi, har bir ishchining va butun jamoaning mehnatini bir vaqtning o‘zida nazorat qilish, motivatsiya va tartibga solish usuli

3.1.2-chizma

Boshqaruv alohida tizim sifatida tobora ko‘proq tajriba almashish sohasi, reklama, ishlab chiqarish vazifalarini tezkor hal qilish vositasi bo‘lib borishiga sabablar

- boshqaruvni professionallashtirish
- biznes va tadbirkorlik maktablari
- maslahat markazlarining ochilishi



3.1.3-chizma

**Boshqaruv obyekti**

Ishlab chiqarish va xo‘jalik yuritish jarayonlari, ishlab chiqarish uskunalarini ekspluatatsiya qilish, turli miqyosdagi mehnat kooperatsiyasi va hokazolar

3.1.4-chizma

**Boshqaruv subyekti**

Korxona rahbari yoki boshqaruv obyektlarini maqsadli ravishda boshqarishni amalga oshiruvchi xizmat rahbarlaridir

3.1.5-chizma

**Boshqaruv faoliyati –**

Boshqaruvchi shaxs yoki organ tomonidan boshqaruv amallarini bevosita va bilvosita komandalar (buyruq, tavsiya va ko‘rsatmalar) shaklida ishlab chiqish va amalga oshirish

3.1.6-chizma

**Boshqaruv amallarining asosiy vazifasi** ⇨ ishlab chiqarish jarayonining yakunlanishi uchun moddiy shart-sharoit yaratish

## 3.2. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida boshqaruvning maqsadi, vazifalari va tamoyillari

3.2.1-chizma

**Korxonani boshqarishning maqsadlari**

- **amalga oshirish muddatiga ko'ra** - joriy va istiqbolli
- **ahamiyat darajasiga ko'ra** - asosiy (strategik) va ikkinchi darajali (taktik)
- **boshqaruv obyektiga munosabatiga ko'ra** - xususiy va umumiy
- **natijaga erishish darajasiga ko'ra** - yakuniy va oraliq yoki bosqichli

3.2.2-chizma

**Boshqaruv tsikli**






3.2.3-chizma

Korxonani boshqarishning samaradorligi, maqsadlarni shakllantirish va amalga oshirishni ta'minlovchi omillar

- korxona rahbari (menedjeri) va boshqaruv funksiyalarini bajarishga mas'ul bo'lgan boshqa shaxslarning tajribasi va malakasi
- boshqaruv amaliyoti va ish tartibiga sarflanuvchi vaqtning qisqartirilishi
- boshqaruv jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirishni oqilona tashkil qilish bo'yicha tashkiliy-texnikaviy chora-tadbirlar majmuasini qo'llash

3.2.4-chizma

**Boshqaruv qarori**

boshqaruv faoliyati texnologiyasidagi muhim bo'g'indir

3.2.4-chizma

**Boshqaruv qarorlari tasniflanishi:**

- *kompetentlik va mas'uliyat bo'yicha* – yakka tarzda yoki kollegial (*jamoa*) boshqaruv qarorlari
- *mazmuni bo'yicha* – ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy boshqaruv qarorlari
- *xarakteri bo'yicha* – operativ-taqsimlovchi, xo'jalik-raxbarlik va me'yoriy boshqaruv qarorlari
- *ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha* – bir va ko'p darajali boshqaruv qarorlari
- *ta'sir ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha* – ichki va tashqi
- *ta'sir ko'rsatish miqyosi bo'yicha* – xususiy va umumiy (majmuaviy)
- *ta'sir ko'rsatish davri bo'yicha* – bir martalik va ko'p martalik



3.2.5-chizma

**Korxonalarni boshqarishning eng asosiy tamoyillari**

ilmiylik

- bu tamoyil, avvalo jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunlari va fan-texnika yutuqlaridan xabardor bo'lishni talab qiladi

tizimlilik va komplekslik

- boshqarilayotgan tizimning vertikal va gorizontal yo'nalishlari bo'yicha barcha xususiyatlarini qamrab olishni ko'zda tutadi

yakka boshqaruv va kollegiallik

- yakka boshqaruv har bir xo'jalik rahbari o'z vakolati doirasidagi masalalarni hal qilishda qonun tomonidan berilgan huquqlarga asosan, bir o'zi (yakka tarzda) qaror qabul qilishini hamda korxona faoliyati uchun shaxsan javobgarligini anglatadi

tartib va adolat

- korxona jamoasining ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishdagi faol ishtirokida ifodalanadi

xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish

- Korxona rahbari qanchalik bilimli va tajribali, uning kasb mahorati va madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa hamda u jamoa to'g'risida qanchalik ko'p qayg'ursa, tartib va adolat ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'ladi

tejamkorlik va samaradorlik

- mehnat unumdorligini oshirishda muhim turtki hisoblanadi va boshqaruv tizimining samaradorligini aks ettiradi

tashabbuskorlik va korporativ ruhiyat

- Bu tamoyilning mohiyati moddiy va mehnat resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, eng kam xarajatlar bilan eng ko'p natijalarga erishish, ishlab chiqarish zaxiralaridan to'liq foydalanishda ifodalanadi

vakolat va majburiyat

- boshqaruvning ratsional, aniq va yo'lga qo'yilgan tashkiliy tizimini yaratish, lavozimlarga oid yo'riqnoma hamda raxbar va mutaxassislarning huquq va burchlari to'g'risidagi hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilgan ish uchun moddiy javobgarlikni belgilash, buyruq va ko'rsatmalarni o'z vaqtida tayyorlashni anglatadi

## 3.3. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari va funksiyalari

3.3.1-chizma

**Tashkiliy tuzilma–**

korxona boshqaruvi funksiyalarini bajaruvchi turli xil bo‘lim, xizmat va bo‘linmalar tarkibi, o‘zaro munosabatlari va bir-biriga bo‘ysunishi

Boshqaruv tuzilmasi dinamik tarzda bo‘ladi. U ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining rivojlanishi, boshqaruv obyektlarining qarama-qarshiliklari va qonuniyatlari haqidagi bilimlarimiz darajasining o‘sishiga bog‘liq holda o‘zgarib boradi

3.3.2-chizma

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

1. korxonaning hajmi
2. ixtisoslashuvi
3. kooperatsiya aloqalari
4. mulkchilik shakli
5. qaysi tarmoqqa tegishliligi
6. joylashgan hududi



3.3.3-chizma

**Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari**

1. chiziqli
2. funksional
3. aralash (chiziqli-funksional)
4. matritsali

3.3.4-chizma

**Chiziqli tuzilma afzalliklari**

- boshqaruvning xar bir bo`gini uchun rahbar tayinlashning nisbatan osonligi
- boshqaruv qarorlarini tayyorlash va bajarishning tezkor (operativ) amalga oshirilishi
- boshqaruv funktsiyalarini bajarishning nisbatan osonligi

3.3.5-chizma

**Boshqaruvning chiziqli tizimi kamchiliklari:**

1. gorizontal aloqalarning tarqoqligi
2. boshqaruvdagi haddan tashqari qattiqlik
3. ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi sharoitlaridagi cheklangan imkoniyatlar

3.3.6-chizma

**Boshqaruvning chiziqli tizimi qo'llanadigan hollar:**

1. xodimlar soni 300–500 kishini tashkil qiluvchi hamda predmetli va texnologik ixtisoslashuv darajasi yuqori korxonalarda (metallga ishlov berish, yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish, yig'ish, bir turdagi xizmat ko'rsatish va hokazo);
2. mahalliy sanoat korxonalarida (masalan, yog'ochni qayta ishlash, mahalliy xomashyodan mahsulot tayyorlash va hokazo)



3.3.7-chizma




3.3.8-chizma



3.3.9-chizma

**Boshqaruvning funksional tuzilmasi afzalliklari**

1. boshqaruv faoliyatini ixtisoslashtirish darajasining yuqoriligi
2. boshqaruv faoliyatining deyarli barcha sohalarini vakolat doirasida qamrab olish
3. ishlab chiqarish diversifikatsiyasining turli talab va shart-sharoitlariga moslashish imkoniyatlari
4. boshqaruv xizmatlari yoki bo‘limlariga xodimlar tanlashning nisbatan osonligi

3.3.10-chizma

**Boshqaruvning funksional tuzilmasi kamchiliklari**

1. yakkahokimlik tamoyilining buzilishi;
2. kelishilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va bajarish hamda ularning kompleksligini ta’minlash qiyinligi;
3. boshqaruvning yuqori pog‘onalari uchun rahbar tanlash-ning murakkabligi



3.3.11-chizma

**Boshqaruvning chiziqli-funksional tuzilmasi**




Chiziqli-shtabli tuzilma boshqaruv aralash tuzilmasining bir ko‘rinishi bo‘lib, unga chiziqli struktura asos qilib olingan. Boshqaruvning har bir bo‘g‘inida shtablar tuzilib, uning tarkibiga muammolarni yechish uchun malakali mutaxassislar taklif etiladi.

## 3.4. Korxonani boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

3.4.1-chizma

**Bugungi kunda boshqaruv tizimini mukammallashtirish sohasida yuzaga kelayotgan tendensiyalar**

1 • boshqaruv faoliyatining maqsadli tavsifini kuchaytirish;

2 • boshqaruvning moslashuvchan tuzilmalarini yaratish va boshqaruv apparatining faoliyatini yaxshilash;

3 • ishlab chiqarishni boshqarishda jamoalar rolining o‘sishi va ularning yuqori natijalarga erishishga yo‘naltiriliganligi;

4 • mehnat faoliyati ijtimoiy sharoitlarining yaxshilanishi

**Korxonalarning boshqaruv organlari tuzilmalarini takomillashtirish yo‘nalishlariga asos qilib olingan sifat ko‘rsatkichlari**

3.4.2-chizma

1 • **Optimallik** – tuzilma bo‘linmalari o‘rtasida eng kam boshqaruv bo‘g‘inlariga ega bo‘lgan holda o‘zaro aloqalarni ratsional tarzda o‘rnatish

2 • **Tezkorlik (operativlik)** – barcha funksional bo‘linmalarning, zarur hollarda ishlab chiqarish bo‘linmalarining, boshqaruv qarorlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash uchun o‘zaro aloqalar aniqlik bilan olib borilishi

3 • **Ishonchlilik** – axborotlarni o‘z vaqtida olish va boshqaruv qarorlarini bajaruvchilarga va bajarish joylariga o‘z vaqtida yetkazishni ta’minlaydi

4 • **Tejamkorlik** – bu, asosan, boshqaruv tizimida maksimal samaraga erishgan holda boshqaruv apparati va uning xarajatlarini kamaytirishga, ya’ni ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishiga erishish



## TAYANCH ATAMALAR

Boshqaruv

**Boshqaruv obyekti**

Korxonada boshqaruvning ta‘siri **boshqaruv obyektiga** yo‘naltirilgan bo‘lib ,ishlab chiqarish va xo‘jalik yuritish jarayonlari, ishlab chiqarish uskunalarini ekspluatatsiya qilish, turli miqyosdagi mehnat koorparatsiyasi va hokazolar **boshqaruv obyekti** bo‘lishi mumkin.

**Boshqaruv subyekti**

**Boshqaruv subyekti** esa qoidaga ko‘ra **korxona rahbari** yoki boshqaruv oyektlari maqsadli ravishda boshqarishni amalga oshiruvchi **xizmat rahbarlari.**

**Boshqaruv qarori**

Boshqaruv faoliyati texnologiyasidagi muhim bo‘g‘inidir. Boshqaruvning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ko‘p jihatdan qarorlarning to‘g‘ri qabul qilinishiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqaruv qarori bir tamondan asosan korxonaning rahbari tomonidan amalga oshiriluvchi mantiqiy-fikriy faoliyat bo‘lsa, ikkinchi tomondan , emotsional-psixologik hatti-xarakatdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir". Toshkent, "O'zbekiston", 2015.

2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2016-yil 17-yanvar.

3. Maxmudov E. "Korxona iqtisodiyoti" (lotin grafikasi). O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi "Adabiyoti jamg'armasi" nashriyoti, Toshkent, 2005.

4. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T., "Sharq", 2006.

5. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. 2-kitob. Oliy o'quv yurtlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. T., "Sharq", 2003.

6. Abdukarimov B.A., Bektemirov A.B., Pardayev M.Q., Salimov Sh.S., Shavqiyev E.Sh., Abdukarimov F.B. Korxona iqtisodiyoti (darslik). T., "Fan va texnologiya", 2013.

7. Murotov R.S., Djalalova I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti (darslik). T., "Fan va texnologiya", 2013.

8. Экономика предприятие. Учебник, под ред. проф. Волкова О.И. доц. Девяткина О.В. 3-е изд., перераб. и доп. М., Инфра-М, 2008, 601 стр.

9. Экономика предприятие. 3-е изд., перераб. и доп. Учебник для вузов. Под ред. проф. В.Я.Горфинкелья, проф. В.А.Швандара. М., ЮНИТИ-ДАНА, 2008, 718 стр.

10. Gruzinov V.P. Экономика предприятие. Учебник. 2-издание. М., ЮНИТИ-ДАНА, 2008, 295 стр.



## MUNDARIJA

**Kirish**......3

**I bob. "Korxona iqtisodiyoti" kursining mazmuni va mohiyati**......5

1.1. "Korxona iqtisodiyoti" – iqtisodiy fanning tarkibiy qismi......5

1.2. "Korxona iqtisodiyoti" – fanning obyekti, predmeti, maqsadi va boshqa fanlar bilan aloqasi......11

1.3. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlashda korxonaning o'rni va roli......15

1.4. Korxonaning belgilari, funksiyalari va vazifalari......18

**II bob. Korxonani tashkil qilish va uning faoliyatini to'xtatish**......26

2.1. Korxona faoliyatini tashkil qilish va ta'sis hujjatlari tayyorlash......26

2.2. Korxonalarning davlat tomonidan ro'yxatga olinishi......31

2.3. Korxonani tugatish va qayta tashkil qilish......35

**III bob. Korxonani boshqarish**......44

3.1. Boshqaruv korxona faoliyatidagi obyektiv zarurat sifatida......44

3.2. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida boshqaruvning maqsadi, vazifalari va tamoyillari......46

3.3. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari va funksiyalari......50

3.4.Korxonani boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari......56

Adabiyotlar ro'yxati......58

**Manzura Masharipova, Otabek Saidov**

# "KORXONA IQTISODIYOTI CHIZMALARDA" (I QISM)

(o'quv-uslubiy qo'llanma)

Muharrir **Ro'zimboy Yo'ldoshev**
Texnik muharrir **Sherali Yo'ldoshev**
Musahhih **Tamara Turumova**

UrDU noshirlik bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 2015-yil 16-oktabrdagi №23-3543 raqamli guvohnomasi bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.
Terishga berildi: 23.05.2016.
Bosishga ruxsat etildi: 3.06.2016.
Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 1/16.
Times garniturasi. Adadi 50. Buyurtma №13.
Hisob-nashriyot tabag'i 1,7.
Shartli bosma tabag'i 1,6.
UrDU noshirlik bo'limida tayyorlandi.
Manzil: 220110. Urganch shahri,
H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.
Telefon: (0-362)-224-66-01.

UrDU bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 220110. Urganch shahri,
H. Olimjon ko'chasi, 14-uy.
Telefon: (0-362)-224-66-01.